

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

**Farida Abdullayeva**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi  
1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada adabiy ta’lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish va uning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda 6-sinf darsligidagi jadvalli topshiriqlarni yechish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, grafik organayzer, muammo, darslik, xarakter xususiyati.

**Аннотация.** В данной статье описано использование графических органайзеров в процессе литературного образования и его значение в повышении эффективности урока, а также способы решения табличных задач в учебнике для 6 класса.

**Ключевые слова:** Образование, графический органайзер, задача, учебник, черта характера.

**Annotion.** This article describes the use of graphic organizers in the process of literary education and its importance in increasing the effectiveness of the lesson, as well as the methods of solving tabular tasks in the 6<sup>th</sup> grade textbook.

**Key words:** Education, graphic organizer, problem, textbook, character trait.

Adabiyot so‘z san’ati bo‘lganidek uni o‘qitish metodikasi ham badiiy mahorat aks etgan san’atdir. Har bir badiiy asar va uning tahlili yosh avlodning ma’naviy olamini boyituvchi vositadir. Shunday ekan ma’naviyat tushunchasining inson qalbida paydo bo‘lishida adabiyot fanining roli beqiyos. „Adabiyot o‘qitish metodikasi pedagogik fanlar tizimiga mansub o‘laroq, ilmning alohida turi bo‘lish uchun qo‘yiladigan talabning barchasiga javob bera oladi. [1:12]

Yangi avlod uchun yaratilayotgan darsliklarimizda berilayotgan ko‘rgazmalilik va uning o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar uchun qulaylashtirilganligi, har xil topshiriqlardan foydalanilganligi o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, ularning mavzuni tezda o‘zlashtirib olishiga zamin yaratishi shubhasiz. „Shu bilan birga, topshiriqlar o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasidan kelib chiqqan holda bolalarning bilimi, o‘zlashtirish darajasiga moslashtirilgan. Ya’ni topshiriqlar osondan murakkabga qarab boradi. O‘qituvchining boshqa qo‘shimcha metodik qo‘llanmalar, topshiriqlarga murojaaat qilishiga zarurat qolmaydi. Darslikning o‘zida bu masala keltirilgan.“[2] Xususan, 6-sinf adabiyot darsligida bir qancha jadvalli topshiriqlar berilgan. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga, mustaqil fikr yuritishga va mavzu bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma hamda malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Darslikdan Abdulla Qahhorning „O‘g‘ri“ hikoyasi ham joy olgan bo‘lib, mavzu asosida jadvalli topshiriq berilgan. Bunda o‘quvchilarning badiiy matnda davrga xos qanday muammo aks etganligi va unga hikoyadan misol keltirish nazarda tutilgan:

Muammo	Hikoyadan misol
Poraxo‘rlik (amaldorlarning arz bilan kelgan fuqarolar muammolarini hal qilish uchun pul yoki sovg‘a olishi)	Qobil bobo ho‘kizni topib berishi uchun ellikboshi, amin, pristavga pul va sovg‘a beradi.
Savodsizlik	Qobil boboning ho‘kizni topish uchun ham anchagina bor-budidan ajralganligi.
Soddalik	Kampirining „duoning zo‘ri bilan qulf ochadigan“ azayimxonga qatnagani.
Amaldorlarning oddiy xalqqa bepisandligi	Aminning Qobil boboga nisbatan „ho‘kizing yo‘qolmasdan ilgari bormidi?“ deya kesatiq munosabati, „Yig‘lanmasin!“ deya Yoshi kata odamga sensirab murojaat qilishi.

Muallif o‘z asarida har xil xarakterdagi obrazlarni keltirishidan maqsad o‘quvchilarda ezgu ma‘naviy sifatlar shaklanishi va insonlarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholay olishidir. Zero, badiiy asarni, undagi qahramonlar xarakterlarini, ularga xos xususiyatlarni, ijobiy va salbiy xislatlarini to‘g‘ri anglay bilishi va har bir o‘quvchi o‘ziga kerakli xulosalarni chiqara olishi yuksak ma‘naviyatli va barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga imkon beradi. Professor Q.Yo‘ldoshev ta‘kidlab o‘tganidek: „Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma‘naviyatida ezgu fazilatlar bo‘lmagan o‘quvchidan ko‘ra, ...badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarini o‘z tabiatiga singdirgan, sirtidan qaraganda, nafaolday tuyuladigan o‘quvchilar jamiyatimiz uchun ko‘proq zarurdir“ [3:42].

Nasrda bo‘lganidek nazmda ham metodikaning samarador usullaridan foydalanish yozuvchilar she‘rlarini tahlil qilishda, she‘riy san‘atlarni aniqlashda, she‘rdagi g‘oyaviy mazmuni anglashda shu bilan birgalikda o‘quvchilarda she‘riyatga mehr qo‘yishda yetakchilik qiladi. 6-sinf darsligida Ibroyim yusupov va Xurshid Davron she‘rlarini qiyosan o‘rgatishning samarali usuli sifatida jadvalli topshiriqlar berilgan. Birinchi topshiriqda o‘quvchilarga „Qadrdon so‘qmoqlar“ va „Vatan devorlari“ she‘rlaridan metafora va o‘xshatishga misollar topish, topilgan metafora yoki o‘xshatish qanday umumiy belgiga asoslanganligini aniqlash vazifasi yuklatilgan.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Metafora va o‘xshatishga misol	Qanday umumiy belgiga asoslangan?
Chumchuqlar chug‘urlar yosh shoirlarday	Qushlarning va yosh shoirlarning shovqini
Talay yo‘llar bosib misoli shamol	Shoir va shamolning uzoq masofa bosib tezlik bilan kelishi
Devorlar – bizning yelkamiz, oyoqlarimiz	Ona o‘lkani yelkada ko‘tarmoq
Minoralar – qaddimiz	Minora va inson qaddining tik bo‘lishi
Sardobalar – bizning ko‘z yoshlar	Ichimlik suvi va ko‘z yosh

Darslikning mustaqil mutolaa va tahlil uchun qismida guruhlarda ishlash uchun yana jadvalli topshiriq berilgan. Sinf ikkita guruhga ajralgan holda I.Yusupov va X.Davron darslikda berilgan she‘rlarini o‘qiydi va muallif qanday obrazlarga murojat qilganligini, bu obrazlar qanday g‘oyaviy maqsadlarga xizmat qilganligini aniqlab jadvalni to‘ldiradilar.

Ibroyim Yusupov		Xurshid Davron	
<i>Obraz</i>	<i>Obrazdan ko‘zlangan maqsad</i>	<i>Obraz</i>	<i>Obrazdan ko‘zlangan maqsad</i>
Kitob	Izlab varaqlash uchun	Yer	Qo‘rqmasdan qadam tashlash uchun
Shamol	Xitob qilish uchun	Ota	Qo‘rqmasdan ishonish uchun
Yulduz	Qarab o‘yga tolish uchun	O‘g‘il	To‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish maqsadida
Quduq	Izlanib qazish maqsadida	Deraza	Tashqariga qarash uchun

Topshiriqda berilgan talablar o‘quvchini sinchkovlikka, aqliy faoliyatini oshirishga, dars jarayonida faollikka eng asosiysi yozuvchi g‘oyasini to‘g‘ri anglashga o‘rgatadi. Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni berishda, natijaning baholanishida o‘qituvchining fikr-mulohazalari ham o‘quvchilarni izlanuvchanlikka, faollikka undaydi. Shu o‘rinda jadvalli topshiriqlardan foydalanish eng faol usullardan biridir. Bunda o‘quvchi mustaqil ishlaydi va esida saqlash yanada oson bo‘ladi. Har bir mavzuga mos va xos topshiriqlar joylanganligi, yozuvchilarning boshqa asralari bilan tanishish, asarlar asosida ishlangan videofilmlarni tomosha qilish, ba’zi o‘rinlarda ijro qilingan musiqalarni tinglash imkoniyatining mavjudligi yangi avlod darsliklarining chinakamiga yutug‘i hisoblanadi.

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. (Pedagogika institutlari va uniersitetlarning filologiya fakultetlari uchun dasturiy qo‘llanma)– T.: 1994. 11 – 12-betlar
2. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-avlod-darsliklari>
3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.: o‘qituvchi,1996. 42-bet.
4. Kamolovich, A. H. (2018). Some Scientific Observations About Unnatural Symbols in the Folklore. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 73-79.
5. Allambergenov, H. (2023). Innovative ways to teach the life and work of Rashod Nuri Guntekin in literary education. The Peerian Journal, 18, 25-29.